




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyul)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari b'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 5306,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,1 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 13,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 6,4 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 3,6 % ga o'sishi kuzatilib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 5,0 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,03 % ini tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5047,5 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,1 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 44,4 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 21,9 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,0 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 44,4 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 21,9 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -17,0 %.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 222,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 113,6 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig‘ish, qayta ishslash va taqsimlash 64,2 %, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizasiya qilish 35,0 % ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-iyul	2019-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	201,3	280,1	- 78,8
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	59,7	72,1	- 12,4
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	30889	27644	3245
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	4520	4436	84
Aroq – ming litr:	201,2	503,0	- 301,8
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	7,9	14,2	- 6,3
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	406,6	630,5	- 223,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:	54173,5	45989,1	8184,4
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:	7576,2	10530,2	- 2954
Xo'jalik sovuni – tonna:	2564	4244	- 1680
Paxta tolasi – tonna:	38963,4	30646,4	8317
Paxta chigit – tonna:	63107,3	48330,4	14776,9

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 78,8 mln.kVtsga, issiqlik energiyasi 12,4 ming gkalga, aroq 301,8 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirit bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 223,9 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 2954,0 tonnaga, xo'jalik sovuni 1680 tonnaga kamaygan.

Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2019-yil yanvar-iyul oylarida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-iyul oylarida bu ko'rsatkich 6,6 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 38,6 foizdan, 40,9 foizga oshgan bo'lsa, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 50,1 foizdan 47,6 foizga yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 foizdan, 0,01 foizga, kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,3 mlrd.so'mlik (2019-yil yanvar-iyul oylarida 0,8 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2527,3 mlrd.so'mlik (2198,2 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 350,2 mlrd.so'mlik (259,9 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 2169,7 mlrd. so'mlik (1693,7 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	5306,5	106,7
Urganch shahri	993,9	92,6
Xiva shahri	78,7	106,7
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	230,6	106,3
Gurlan tumani	215,5	104,5
Qo'shko'pir tumani	99,9	106,1
Urganch tumani	245,4	106,4
Hazorasp tumani	158,0	109,8
Tuproqqa'l'a tumani*	2455,8	106,0
Xonqa tumani	235,5	85,1
Xiva tumani	114,7	122,4
Shovot tumani	159,2	106,0
Yangiariq tumani	169,0	136,3
Yangibozor tumani	150,3	147,4


Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahri, Tuproqqa'l'a, Urganch, Gurlan va Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

***Tuproqqa'l'a tumani – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, Yangibozor tumanida 147,4 %, Yangiariq tumanida 136,3 %, Xiva tumanida 122,4 %, Hazorasp tumanida 109,8 %, Xiva shahrida 106,7 %, Urganch tumanida 106,4 % va Bog'ot tumanida 106,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2019-YIL YANVAR-IYUL OYLARIGA NISBATAN, % DA**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Tuproqqal'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,3 %), Urganch shahri (18,7 %), Urganch (4,6 %), Xonqa (4,4 %) hamda Bog'ot (4,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,2 %), Qo'shko'pir tumani (1,9 %) va Xiva shahri (1,5 %)ga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-iyul	2019-yil yanvar-iyul
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	5306,5	4385,3
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,5	1,4
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,5	1,4
Qayta ishslash faoliyati	5047,5	4152,5
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	741,0	677,3
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	159,5	135,2
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1129,9	753,7
Kiyim ishlab chiqarish	31,0	12,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,4	3,4
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	5,0	5,4
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	23,4	11,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,7	1,0


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-iyul	2019-yil yanvar-iyul
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	28,8	18,7
Asosiy farmasevtika	0,1	0,5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	29,8	27,7
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	185,3	121,7
Metallurgiya sanoati	18,9	15,0
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	107,8	84,2
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	14,7	16,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	126,2	195,9
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2357,3	1966,7
Mebel ishlab chiqarish	28,8	24,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	47,9	69,3
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	7,8	10,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	222,3	202,7
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	35,1	28,6




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3325,3 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-iyul



2019 yil yanvar-iyul



Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 761,0 mlrd.so'mni, alkogol ichimliklar 8,3 mlrd.so'mni va 2556,0 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 89,0 foiz, 49,2 foiz va 114,4 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,7 foizni (2019 yil yanvar-iyul oylarida 70,8 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ihslab chiqarish 170,7 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 2030,0 mlrd.so'mni va 359,3 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-iyul oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3325,3	100	107,1
Urganch shahri	432,1	13,0	88,7
Xiva shahri	56,3	1,7	97,5
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	125,7	3,8	104,3
Gurlan tumani	74,6	2,2	99,7
Qo‘shko‘pir tumani	34,3	1,0	70,2
Urganch tumani	158,8	4,8	99,0
Hazorasp tumani	44,5	1,3	69,6
Tuproqqa'l'a tumani	2075,4	62,4	121,3
Xonqa tumani	125,4	3,8	95,1
Xiva tumani	43,7	1,3	59,6
Shovot tumani	68,8	2,1	89,8
Yangiariq tumani	48,1	1,5	86,8
Yangibozor tumani	37,5	1,1	85,3

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib, 62,4 % ni, shuningdek, Urganch shahri 13,0 % ni, Urganch tumani 4,8 % ni, Xonqa tumani 3,8 % ni hamda Bog‘ot tumani 3,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumani (121,3 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-iyul oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	761,0	100	89,0
Urganch shahri	271,4	35,7	87,4
Xiva shahri	25,7	3,4	89,3
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	55,7	7,3	115,6
Gurlan tumani	32,9	4,3	76,8
Qo'shko'pir tumani	18,9	2,5	62,1
Urganch tumani	106,0	13,9	107,8
Hazorasp tumani	25,4	3,3	64,3
Tuproqqa'l'a tumani	10,3	1,4	58,7
Xonqa tumani	86,6	11,4	100,0
Xiva tumani	26,7	3,5	66,3
Shovot tumani	51,4	6,7	95,2
Yangiariq tumani	25,7	3,4	84,7
Yangibozor tumani	24,3	3,2	86,3

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 35,7 %, shuningdek, Urganch tumani 13,9 % ni, Xonqa tumani 11,4 % ni, Bog‘ot tumani 7,3 % ni, Shovot tumani 6,7 % ni, Gurlan tumani 4,3 % ni hamda Xiva tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumani (115,6 %), Urganch tumani (107,8 %) va Xonqa tumani (100,0 %)ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar- iyul oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2556,0	100	114,4
Urganch shahri	152,4	5,9	95,2
Xiva shahri	30,6	1,2	105,8
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	70,0	2,7	96,8
Gurlan tumani	41,7	1,6	130,3
Qo‘shko‘pir tumani	15,4	0,6	83,6
Urganch tumani	52,7	2,1	85,1
Hazorasp tumani	19,2	0,8	78,2
Tuproqqał'a tumani	2065,1	80,8	122,0
Xonqa tumani	38,8	1,5	85,6
Xiva tumani	17,0	0,7	51,4
Shovot tumani	17,5	0,7	76,9
Yangiariq tumani	22,5	0,9	89,4
Yangibozor tumani	13,2	0,5	83,5

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 80,8 %, shuningdek, Urganch shahri 5,9 % ni, Urganch tumani 2,1 % ni, Xonqa tumani 1,5 % ni va Gurlan tumani 1,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (114,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Gurlan tumani (130,3 %) va Tuproqqa'l'a tumani (122,0 %) ni tashkil qildi.




Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan Tuproqqa'l'a tumanida 121,3 % ga, Bog'ot tumanida 104,3 % ga sezilarli darajada o'sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o'sish sur'ati 100 % dan kamayganini ko'rish mumkin.

Masalan, Yangibozor tumanida 85,3 %, Qo'shko'pir tumanida 70,2 %, Hazorasp tumanida 69,6 % va 59,6 % Xiva tumaniga to'g'ri keladi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar- iyul oylarida, ming so‘m)**


Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2835,4	105,0	1776,8	105,3
Urganch shahri	6892,5	91,2	2996,9	87,4
Xiva shahri	853,0	105,1	610,3	96,1
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot tumani	1403,3	104,4	765,3	102,5
Gurlan tumani	1455,4	102,9	503,8	98,2
Qo‘siko‘pir tumani	580,9	104,3	199,7	69,0
Urganch tumani	1237,3	104,4	800,3	97,2
Hazorasp tumani	817,1	107,8	230,4	68,3
Tuproqqa’l tumani	44582,9	104,9	37676,3	120,0
Xonqa tumani	1265,5	83,8	673,7	93,6
Xiva tumani	789,8	120,4	300,9	58,6
Shovot tumani	938,4	104,3	405,8	88,3
Yangiariq tumani	1459,3	134,2	415,4	85,5
Yangibozor tumani	1723,3	145,2	429,7	84,0

Yuqoridagi tahlily jadvalga asosan joriy yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 2835,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,0 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Tuproqqa’l tumani 37802,8 ming so‘mdan 2020-yil

yanvar-iyul oylarida 44582,9 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 870,6 ming so‘mdan 1459,3 ming so‘mga, Shovot tumanı 783,7 ming so‘mdan 938,4 ming so‘mga, Xiva tumanida 470,3 ming so‘mdan 789,8 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (44582,9 ming so‘m), Urganch shahrida (6892,5 ming so‘m)ga o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2835,4 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon b4oshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1776,8 ming so‘mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Tuproqqa'l'a tumani 31388,9 ming so‘mdan 2020 yil yanvar-iyul oylarida 37676,3 ming so‘mga, Bog'ot tumani 746,7 ming so‘mdan 765,3 ming so‘mga o'sgani kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-iyul oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumanı (100 %), Bog'ot tumani (80,6 %), Urganch tumani (80,1 %), Gurlan tumani (56,1 %), Qo'shko'pir tumani (40,9 %)ni tashkil qildi.

Viloyatda yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1456,7 mlrd.so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,4 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida


sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Tuproqqa'l'a tumani (2,9 %), Yangibozor tumani (25,0 %), Yangiariq tumani (29,2 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 624,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar (2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

**Yangi tashkil etilgan
korxonalar soni, birlikda:**



**Faoliyat yuritayotgan
korxonalar soni, birlikda:**





Viloyatda 3,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1,9 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 58,5 %) Urganch shahriga, 681 tasi (20,6 %), Urganch tumaniga 389 tasi (11,8 %), Xiva shahriga, 297 tasi (9,0 %), Xonqa tumaniga 289 tasi (8,8 %), Xiva tumaniga 274 tasi (8,3 %) to'g'ri kelmoqda.

2020-yil yanvar-iyul oylarida viloyatda 646 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo'lган Urganch shahrida 106 ta, Qo'shko'pir tumani va Xiva shahrida 70 ta, Urganch tumanida 57 ta, Xonqa tumanida 53 ta va 53 ta Yangibozor tumanida tashkil etilgan.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi.
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99